

O'smirlik davrida depressiya holatini aniqlash

Aliyeva Xosiyat Xusniddinovna
Qo'qon DU Psixologiya kafedrası
stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir shaxsini inqiroz davrlari va depressiya holatini diagnostika qilish haqida gap ketadi.

Kalit so'zlar: Pubertat, o'smir, inqiroz, suitsid, xarakter, psixologik, depressiya.

Аннотация: В данной статье речь идет о диагностике подростковых кризисных периодов и депрессий.

Ключевые слова: Половое созревание, подросток, кризис, суицид, характер, психологический, депрессия.

Annotation: This article deals with the diagnosis of adolescent crisis periods and depression.

Key words: Puberty, teenager, crisis, suicide, character, psychological, depression.

O'smirlik davri – o'smir organizmida ro'y beradigan muhim o'zgarishlar, shu jumladan ikkilamchi jinsiy belgilar bilan xarakterlanuvchi jismoniy hamda jinsiy rivojlanishning tezalashtirishidir. L.S.Vigotskiy pubertativ yosh 14-18 yoshni hamda ikki inqiroz davrni: 13 va 17 yoshni ajratadi[1].

O'smirlik davri bola organizmining katta o'zgarishi – jinsiy etilish bilan bog'liq. Ruhiy va fiziologik rivojlanish yo'nalishlari parallel kechmasada, mazkur davr chegaralari sezilarli o'zgarib turadi. Bir turdagi bolalar o'smirlik davriga ertaroq kirishsa, boshqalari – kechroq kiradilar, pubertat davr 11va 13 yoshda vujudga kelishi mumkin. Inqiroz boshlanishi bilan odatda butun bir davr bola uchun ham, yaqinlari uchun ham murakkab kechadi. Shuning uchun o'smirlik davri ba'zan uzoq cho'zilgan inqiroz davri ham deb yuritiladi.

Mazkur yosh davrida inson rivojlanishining ijtimoiy holati (ahvoli) bolalik davridan mustaqil hayotga va mas'uliyatli davrga o'tish bilan ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'smirlik yoshi bolalik va katta yosh toifasidagi davrning oraliq o'tish davri hisoblanadi. Fiziologik darajada o'zgarishlar ro'y beradi, kattalar va teng-qurlari bilan yangicha munosabatlar shakllanadi, ong, aql va qobiliyatlari sohasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. Ma'naviy va jismoniy hayot uydan ko'chaga ko'chib, tengdoshlari bilan yanada murakkabroq darajadagi munosabatlar shakllanadi.

O'smirlar birgalikdagi faoliyatlar va o'yinlar bilan mashg'ul bo'lib, hayot uchun muhim mavzularda suhbat quradilar va ularni muhokama qiladilar. Mazkur yosh davri kishining yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur davrga kelib kishining faoliyat turi sezilarli kengayadi va xarakteri o'zgaradi, ongli

xatti-harakatlar shakllanib, axloqiy me'yor va tushunchalari rivojlanishining yakuniy bosqichlari ro'y beradi. Bularning barchasi psixologik va fiziologik ziddiyatlar, ma'naviy shakllanish shaklida sodir bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlik davri murakkab, mashaqqatli o'tish davri deb yuritiladi. Shuning uchun ham atrofdagilar bilan munosabatning yomonlashishi, xatti-harakatlardagi qarama-qarshiliklar mazkur yosh davrida katta yosh toifasidagi odamlar tomonidan jamoat me'yorlaridan chetga og'ish tarzida qabul qilinadi. Tez rivojlanish sabab yurak, o'pka, bosh miyada qon aylanishi sohalarida murakkabliklar vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun o'smirlar uchun qon aylanishi va mushaklardagi tonus o'zgarishlari ro'y berishi hodisalari kuzatilish mumkin. Bunday keskin o'zgarishlar kayfiyatning tez o'zgarishi va jimoniy holatning o'zgarishini keltirib chiqarishi mumkin. O'smirlik yoshida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan biri – katta bo'lganlik hissidir[2].

O'tish davrining eng muhim jarayonlari quyidagilar hisoblanadi: shaxsiyat hayoti olamining, uning muloqat doirasining, ma'lum bir guruhga tegishli bo'lishi, u yo'nalish olgan qiziqishlarining kengayishi. O'tish davrining eng muhim talablaridan biri ota-onalari, ustozlari kattalar nazoratidan holis bo'lish, shuningdek eng muhimi ular rioya etishi lozim bo'lgan qoidalarga bo'ysunmaslik xohshidir.

L.I. Bojovich bu narsa o'quvchilarning ijtimoiy yetuk emasligi sabab qondirilmaydigan talablari vujudga kelishiga olib keladigan o'smirlarning nisbatan tez aqliy va jismoniy rivojlanishlari bilan bog'liq deb ta'kidlaydi. Depressiv hastaliklar alomati o'smirlarda katta yosh toifasidagi bolalarga nisbatan ko'proq bo'lib, bu narsa yosh toifasi va rivojlanish bosqichi, jinsi, oilaviy ahvoli va kognitiv imkoniyatlariga bog'liqdir[3].

O'smirlik davrida urushuvchanlik, tortinchoqlik, donishmandlik va faylasuflik namoyon bo'lishi mumkin. Biroq shu bilan birga o'smirlik hamda yoshlik davrida depressiv alomatlari ko'p hollarda kattalarda kechayotgan depressiya alomatlari bilan o'xshash.

Hech narsani o'zgartira olmayman degan holatni keltirib chiqaruvchi umidsizlik hissi mazkur yosh davriga kelib suitsid holatiga olib kelishi mumkin. O'smir yoshlarning kichik yoshdagi bolalardan farqli ravishda chuqur tushkunlik kayfiyati, ishonchsizlik hissi, o'z joniga qasd qilish tuyg'usi ko'proq katta yoshdagi kishilar his-tuyg'ulariga o'xshashib ketishi taxmin qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Vigotskiy L. S. // Shaxsiyat psixologiyasi. Matnlar: o'quvchi; Ed. M.: Moskva davlat universiteti, 1982.
2. Semenova L. N. "O'z-o'zini namoyish qilish texnologiyasi": o'quv-uslubiy majmua / L. M. Semenova: Ed. Chelyabinsk: Yuurgudan. - 2005.
3. Bojovich L. I. "Bolalik davrida shaxsiyat va uning shakllanishi". Qarang:, 2008.